



UDK: 338.48-44:39(575.1-17)

Akbar BABABEKOV,

PhD, dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: abababekov79@gmail.com, ORSID: 0000-0002-7291-4499

O'zMU professori, t.f.d B.Ubaydullayeva taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF DESTINATIONS WITH "TOURISM VILLAGE" STATUS BASED ON THE ETHNO-VILLAGE CONCEPT (ON THE EXAMPLE OF VILLAGES IN THE JIZZAKH OASIS)

Annotation

Today, particular attention worldwide is paid to modern research that creates a scientific and theoretical basis for the sustainable development of the tourism sector in order to maximize its positive socio-economic impacts and mitigate negative consequences. In particular, investigating regional tourism potential—specifically the historical-ethnographic direction—as a key factor in the sustainable development of rural areas and studying the criteria that ensure its competitiveness have become urgent subjects of modern science. Therefore, analyzing historical-ethnographic tourism in the villages of the Jizzakh oasis as a tool for stimulating economic growth, increasing population income, and enhancing living standards, while relying on sustainability principles and widely implementing digital technologies, is gaining vital importance. This article is aimed at researching the scientific and theoretical foundations of sustainability in the field of historical-ethnographic tourism, the concept of rural tourism, and the digitalization of the sector on the example of the Jizzakh oasis villages.

Key words: Sustainability, tourism, historical-ethnographic, rural, concept, theory, digitalization.

РАЗВИТИЕ ДЕСТИНАЦИЙ СО СТАТУСОМ «ТУРИСТИЧЕСКАЯ ДЕРЕВНЯ» НА ОСНОВЕ КОНЦЕПЦИИ ЭТНОДЕРЕВНИ (НА ПРИМЕРЕ СЕЛ ДЖИЗАКСКОГО ОАЗИСА)

Аннотация

На сегодняшний день во всем мире особое внимание уделяется современным исследованиям, формирующим научно-теоретическую базу для устойчивого развития сферы туризма с целью повышения его положительного социально-экономического эффекта и минимизации негативных последствий. В частности, исследование регионального туристического потенциала — особенно историко-этнографического направления — как фактора устойчивого развития сельских территорий, а также изучение критериев, обеспечивающих его конкурентоспособность, стали актуальным предметом современной науки. В связи с этим важное значение приобретает изучение историко-этнографического туризма в селах Джизакского оазиса как инструмента стимулирования экономического роста, повышения доходов и уровня жизни населения, опирающегося в данном процессе на принципы устойчивости и широкое внедрение цифровых технологий. Данная статья направлена на исследование научно-теоретических основ устойчивости в сфере историко-этнографического туризма, концепции сельского туризма и информатизации отрасли на примере сел Джизакского оазиса.

Ключевые слова: Устойчивость, туризм, историко-этнографический, сельский, концепция, теория, информатизация.

“TURIZM QISHLOG‘I” MAQOMIDAGI MASKANLARNI ETNOQISHLOQ KONSEPSIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH (JIZZAX VOHASI QISHLOQLARIDA MISOLIDA)

Annotatsiya

Bugungi kunda jahonda turizm taraqqiyotining ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini oshirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida turizm sohasini barqaror rivojlantirishga ilmiy-nazariy asos yaratadigan zamonaviy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, hududiy turizm salohiyatini, xususan, tarixiy-etnografik yo'nalishni qishloq joylarining barqaror taraqqiyoti omili sifatida tadqiq etish va raqobatbardoshligini ta'minlovchi mezonlarni o'rganish zamonaviy ilm-fanning dolzarb predmetiga aylandi. Shu bois, Jizzax vohasi qishloqlarida tarixiy-etnografik turizmni iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish dastagi sifatida o'rganish, bu jarayonda barqarorlik tamoyillariga tayanish va raqamli texnologiyalarni keng tadbiiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola Jizzax vohasi qishloqlari misolida tarixiy-etnografik turizm sohasida barqarorlik, qishloq turizmi konsepsiyasi va sohani axborotlashtirishning ilmiy nazariy asoslarini tadqiq etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Barqarorlik, turizm, tarixiy-etnografik, qishloq, konsepsiya, nazariya, axborotlashtirish.

Kirish. Ommaviy turizm bilan birgalikda uning muqobil turlarini tadqiq etish bo'yicha ustuvor ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jumladan, “turizm qishloqlari”ni barpo etish; hududning turistik salohiyatini va qabul qilish imkoniyatini baholash; turizmni rivojlantirishda jamoatchilik ishtirokiga asoslangan menejment usullarini tadbiiq etish; turistik hududlarda innovatsion faoliyatni kuchaytirish, axborot texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish kabi yo'nalishlardagi izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Turizm qishlog‘i” g'oyasi Fransiyada paydo bo'lib, 1970 yilda 4000ta turizm qishlog‘i mavjud bo'lgan. Bu sohada birinchilar qatorida Shvesariya va Germaniyani ham tilga olish mumkin[1]. “Turizm qishlog‘i” konsepsiyasi, belgilash mezonlari va rivojlantirish shart-sharoitlariga doir tadqiqotlar orasida Batler, Siolak, Peydj, Gets, Roberts, Okazaki, Jamal, Stronza, Karson kabi olimlarning ishlari alohida o'ringa ega hisoblanadi[2]. Ilmiy adabiyotda turizm qishloqlarini rivojlantirishning yuqori istiqboli o'sib borayotgan shahar aholisi va xorijiy turistlarning

ochiq havoda hordiq chiqarish xohish-istagi bilan tushuntiriladi va barqarorlik masalasi ustuvorlashtiriladi.

Jizzax viloyati turizm qishloqlarida xilma-xil hamda yilning turli fasllarida jozibador va raqobatbardosh tematik turistik zonalarini yaratish orqali turizmning istiqbolli turlari: ekologik, etnografik, davolovchi-sog'lomlashtiruvchi, mahalla (qishloq) turizmini rivojlantirish salohiyatiga ega hudud hisoblanadi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-son Farmoniga asosan, eng yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lgan fuqarolar yig'inlari ro'yxatini shakllantirib, ulardan tegishli talablarga javob beradiganlariga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" yoki "Turizm ovuli" maqomini berilishi belgilandi. Shunga muvofiq Forish tumanida O'xum, Sayyod, Do'stlik va Uchquloch MFYlar "Turizm mahallasi" maqomini olgan.

Jizzax vohasi qishloqlarining har bir mahalla (qishloq) o'ziga xos bo'lgan turizmning alohida yo'nalishlariga ega bo'lib, asosida avtomagistral yo'l bo'yida joylashgan Uchquloch (Tuzkon ko'li), O'xum, Sayyod va Do'stlik MFY qishloqlari (tog' oldi hududi o'zining tabiatga asoslangan ekoturizm va ziyorat turizmi, etnoturizm maskanlari) hamda ilm-ma'rifat o'chog'i sanaluvchi Garasha qishlog'ida ta'lim turizmini keng targ'ib qilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda barqaror rivojlanish va turizm tushunchalari o'zaro uyg'un holda yangi yo'nalish sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Shu bois bu tarix, iqtisodiyot va etnologiya va boshqa fanlar kesishmasidagi o'rganish ob'ekti sifatida fanlararo tadqiqot metodologiyasiga tayangan holda, tarixiylik, ob'ektivlik, bevosita etnografik kuzatuv, suhbat kabi usullar orqali o'rganishga keng e'tibor qaratilmoqda.

Tahlil va natijalar. Turizm industriyasida barqaror taraqqiyot g'oyalari ilk bor J. Forresterning "O'sish chegaralari" nomli mashhur asari nashr etilguniga qadar shakllana boshlaganini ta'kidlash joiz. Xususan, 1965 yilda ekologik muhitga salbiy bosimni kamaytirishni nazarda tutuvchi "ekoturizm" atamasining ilm-fanga kirib kelishi bu fikrni asoslaydi. Shuningdek, 1972 yilning 16 noyabrida Parijda qabul qilingan Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya ham sohada barqarorlik tamoyillarining dastlabki poydevori bo'lib xizmat qildi.

1987 yilda BMT Bosh Assambleyasi shafeligidagi Atrof-muhit va taraqqiyot bo'yicha butunjahon komissiyasi (WCED) tomonidan taqdim etilgan "Brundtland ma'ruzasi" barqaror rivojlanish konsepsiyasini rasmiy maqomga ega qildi[3]. Keyinchalik, 1992 yilgi Rio-de-Janeyro sammitida ushbu tizimning global institutsional asoslari belgilangach, Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) va boshqa xalqaro tuzilmalar tomonidan soha barqarorligini ta'minlashga qaratilgan metodologik qo'llanmalar ishlab chiqila boshlandi[4].

O'tgan asrning 90-yillari boshiga kelib, turizmning nafaqat ijobiy yutuqlari, balki uning atrof-muhitga salbiy ta'sirini ham tahlil qilgan tadqiqotchilar "barqaror turizm" tushunchasini ilmiy muomalaga faol kiritishdi[5]. Bu borada 1993 yildan boshlab "Barqaror turizm jurnali"ning xalqaro jurnalining chop etilishi nazariy qarashlarni tizimlashtirishda muhim burilish yasadi.

BMT Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) talqiniga ko'ra, barqaror turizm — bugungi sayyohlar va qabul qiluvchi mintaqalar ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda, kelajak avlodlar uchun mavjud imkoniyatlarni saqlash va boyitish demakdir[6]. Bunda barcha resurslarni iqtisodiy, ijtimoiy hamda estetik jihatdan shunday boshqarish nazarda tutiladiki, natijada madaniy o'zlik, muhim ekologik jarayonlar, bioxilma-

xillik va hayotiy tizimlarning daxlsizligi ta'minlanadi. Binobarin, barqaror turizm modeli bir vaqning o'zida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muvozanat talablariga to'liq javob berishi shart. Shundan kelib chiqqan holda, turizmni istiqbolli rejalashtirish jarayonini makroiqtisodiy, ijtimoiy va ekologik dinamika bilan uzviy integratsiyalash zarur.

UNWTO tomonidan berilgan metodologik ta'rifga ko'ra, barqaror turizm: "Bugungi kun sayyohlari va mezbон hududlarning ehtiyojlarini muvozanatli qondirgan holda, kelajak istiqbollari himoya qiladi va kengaytiradi. U iqtisodiy, ijtimoiy va estetik ehtiyojlarni qondirishda resurslarni shunday boshqaradiki, bunda hududlarning milliy-madaniy o'zligi, muhim ekologik jarayonlar, biologik xilma-xillik hamda hayotiy tizimlar xavfsizligi kafolatlanadi" [7]. Demak, barqaror turizm ekologik, ijtimoiy hamda iqtisodiy barqarorlik mezonlariga birdek mos kelishi majburiydir. Shu bois, turizm sohasini rejalashtirish va boshqarish strategiyalarini iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik trendlar bilan uyg'unlikda olib borish talab etiladi.

Zamonaviy konsepsiyalarga ko'ra, barqaror turizm konseptual jihatdan uchta bosh element — uzluksizlik, sifat va muvozanatning sinergetik birligidan iborat[8]. Bunda uzluksizlik tamoyili hududning tabiiy va madaniy-etnografik muhitini asrashni, sifat mezoni atrof-muhitning ekologik holatini yaxshilashni, muvozanat esa bozor kon'yunkturasiidagi barqarorlikni anglatadi. O'z navbatida, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik ko'rsatkichlari yil davomida mahalliy aholining barqaror bandligini ta'minlash, turizmning region iqtisodiyotiga qo'shayotgan real hissasi hamda qishloq joylarida an'anaviy madaniyat va qadriyatlarni qayta tiklashda aks etadi. Turizmning ekotizimga salbiy bosimini minimallashtirish va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish sohaning barqarorlik darajasini yuksaltiradi[9].

Turizm barqaror rivojlanishi konsepsiyasining turli ilmiy talqinlaridan kelib chiqib, unga quyidagicha mualliflik ta'rifini berish mumkin: "turizmning barqaror rivojlanishi — davlat, jamiyat va tadbirkorlik sub'ektlarining o'zaro hamkorligi muhitida, turistik talab va taklif mutanosibligini hududning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda, istiqbolli va tizimli davom ettirilishini ta'minlashdir"[10].

Muayyan turistik makon (destinatsiya) miqyosida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ularning yuzaga kelish omillari va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda metodologik jihatdan tizimli yondashuv usullari qo'llaniladi. Turizm industriyasi shakllanishining umumiy tabiati va qonuniyatlarini konseptual tadqiq etishda esa soha taraqqiyotining evolyusion modellari tayanish maqsadga muvofiqdir.

Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, uzoq vaqt davomida turizm bozoridagi dinamika faqat talabning o'zgarishi va sayyohlarning motivatsion omillari bilan belgilanadi, degan qarash ustuvor bo'lgan[11]. Shu sababli olimlarning izlanishlari asosan miqdoriy ko'rsatkichlarni oshirish va rekreatlar ehtiyojlarini qondirishga qaratildi. Natijada sayohatlarning mahalliy atrof-muhitga va qabul qiluvchi etno-madaniy jamiyatning ichki hayotiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlari e'tibordan chetda qoldi. Vaholanki, turizm destinatsiyalari o'z taraqqiyotida mahalliy "busterizm", sof iqtisodiy manfaatdorlik va yer resurslaridan ekstensiv foydalanish kabi turli evolyusion davrlarni boshdan kechirdi.

Turizm makonlari rivojlanishining ushbu qonuniyatlari Batler, Miossek, Tyorner, Lopez va Mareki kabi xorijlik tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida konseptual jihatdan asoslab berilgan. Ayniqsa, ushbu jarayonlarning ichki determinantlari va davrlashtirilishini o'rganishda R.V. Batler tomonidan ishlab

chiqilgan "Turistik hudud hayot sikli modeli" [12] alohida nazariy qimmatga ega.

Batler ushbu model doirasida har qanday geografik muhitning ma'lum omillar ta'sirida turistik makonga aylanishini bosqichma-bosqich izhor qiladi. Prognozlariga ko'ra, destinatsiya o'z hayot siklida kashf etish, shakllanish (taqdimot), faol rivojlanish, konsolidatsiya va stagnatsiya bosqichlarini bosib o'tadi. E'tiborli jihati, aynan faol rivojlanish davridan boshlab hududda ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy muammolar bo'y ko'rsata boshlaydi. Modelning konseptual xulosasi shuni anglatadiki, faqatgina tizimli rejalashtirish va kompleks sog'lomlashtirish strategiyalari rekreatsion maskanlarni muvaffaqiyatsizlikdan asrab, ularning barqaror taraqqiyotini kafolatlaydi.

Ushbu yo'nalishda J. Miossek ham Batler modelini to'ldirgan holda, turizm tizimini harakatlantiruvchi to'rtta asosiy komponentni - "kurort", "transport", "turist psixologiyasi" va hududning "rekreatsion jozibadorligini" kompleks ravishda tahlil qildi. Ushbu omillarning o'zaro bog'liqlikda rivojlanishi umumiy sinergetik samara beradi. Muallif tasnifiga ko'ra, turizm evolyusiyasi oddiy maskandan boshlab, chuqur iqtisodiy ixtisoslashuvga bo'lgan beshta bosqichdan iborat. Miossek turizmni nafaqat moddiy o'zgarishlar, balki sayyohlarning xulq-atvori va ularning talablariga mos ravishda shakllanadigan xizmatlar majmui sifatida asoslab bergani bois soha nazariyasiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida e'tirof etiladi [13].

Bundan tashqari, L. Tyorner tomonidan taklif etilgan makon evolyusiyasini davrlashtirish yondashuvi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda jarayon uch bosqichga ajratiladi. Birinchi bosqichda turizm uchun eng potensial va qulay makon tanlanadi. Ikkinchi bosqichda ushbu hududda turizm industriyasining shiddatli va faol rivojlanishi ta'minlanadi. Uchinchi yakuniy bosqichda esa tizimning inqirozi va destinatsiyaning so'nishi kuzatiladi.

Dastlabki bosqichlarda turistik makonlarda o'sish sur'atlari sekin kechadi. Rekreatsion maqsadlar uchun munosib hudud tanlanib, faol targ'ib qilingach, sayyohlar oqimi shakllana boshlaydi; mahalliy hamjamiyat esa bunga javoban zarur infratuzilma va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini yaratadi. L. Tyornerning ilmiy qarashlari yer resurslaridan foydalanish va hududiy joylashuv konsepsiyasiga to'liq mos keladi [14]. Ushbu yondashuv asosan mutlaqo yangi shakllanayotgan destinatsiyalar (Masalan, G'allaorol tumani, Uzunbuloq turizm qishlog'i va Forish tumani Mojrur turizm qishlog'i) tahlilida, xususan, hududdagi moddiy-infratuzilmaviy transformatsiyalarni baholashda muhim ahamiyatga ega.

O'z navbatida, L. Lopez va Ye. Mareki turizm rivojlanishining dinamik jarayonini quyidagi ustuvor fazalarga ajratishni taklif etadi:

- a) sayyohlar sonining muntazam va izchil ortib borish bosqichi;
- b) turistlar oqimining maksimal (pik) darajaga yetish bosqichi;
- v) tashrif buyuruvchilar sonining barqarorlashishi yoki o'sish sur'atining to'xtashi;
- g) sayyohlar miqdorining shiddatli ravishda kamayish fazasi [15].

Bunday davrlashtirish tizimi kirish turizmining muayyan destinatsiyaga ko'rsatadigan ta'sirini yaqqol ifodalaydi. Turizmning shakllanish bosqichida makon asosan budjetli mehmonxonalarni afzal ko'radigan va kam mablag' sarflaydigan — past daromadli sayyohlarni jalb qiladi. Bu toifadagi rekreatsionlar uchun xizmat ko'rsatish sifatidan ko'ra, hududning tabiiy va madaniy jozibadorligi ustuvor hisoblanadi. Binobarin, sohaning rivojlanishi va xizmat ko'rsatish standartlarining yuksalishi natijasida destinatsiyaga yuqori

baholi servisdan (masalan, premium klassdagi mehmonxonalardan) foydalanuvchi yuqori daromadli sayyohlar oqimi kirib kela boshlaydi. Mazkur jarayon sohaga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmining keskin ortishiga xizmat qiladi. Vaqt o'tishi bilan ommaviy turizmning keng yoyilishi oqibatida yuqori daromadli qatlam o'rni o'rta daromadli sayyohlar egallaydi. Lopez va Mareking ushbu qarashlarida "iqtisodiy manfaatdorlikni maksimalashtirish" konsepsiyasi o'z aksini topgan.

Turizm tarixida jadal targ'ibot ("busterizm") hamda Lopez va Mareking sof iqtisodiy nafni maqsad qilgan yondashuvlari asosiy e'tiborni faqat yangi joylashtirish vositalarini ochish, transport tizimini yaxshilash va sohani reklama qilishga qaratgani bois jiddiy tanqidga uchragan. Ushbu konsepsiyalar ustuvor bo'lgan davrda turizm faqatgina moliyaviy daromad manbai sifatida baholanib, uning ekologik va ijtimoiy destruktiv (salbiy) oqibatlari inobatga olinmagan.

Biroq turizmning ijobiy natijalari bilan bir qatorda uning salbiy ta'sirlari ham kuchayib borishi, bunday muammolarni bartaraf etish yoki kamaytirishni dolzarb vazifaga aylantirdi. Natijada destinatsiya rivojlanishini baholashda miqdoriy ko'rsatkichlar (turistlar soni, tunashlar soni, moliyaviy tushumlar) bilan bir qatorda sifat indikatorlarining (atrof-muhit va jamiyatga ta'siri) ham roli tubdan oshdi. Buning samarasi o'laroq, dastlab "mezbon jamiyat manfaatlariga yo'naltirilgan", keyinchalik esa "integratsiyalashgan" yoki "barqaror turizm" yondashuvlari shakllandi.

Amaliy jihatdan barqaror turizm mezonlarini belgilash va ularni o'lchash ko'p qirrali hamda murakkab vazifa hisoblanadi. Ushbu keng qamrovli muammoni tadqiq etishda turizmning "o'sish chegaralari" munozaralariga javoban yuzaga kelgan destinatsiyaning "qabul qilish imkoniyati" (carrying capacity) konsepsiyasidan foydalanish yuqori ilmiy samara beradi. Mazkur konsepsiyaning shakllanishida rekreatsiya geografiyasi va o'rmon xo'jaligi fanlari vakillarining hissasi katta. Ular har qanday hudud ekotizimining zarar ko'rmasdan qabul qila oladigan maksimal sig'imi mavjudligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surib, turistik makonlarning sig'im imkoniyatlari nazariyasiga poydevor qo'ydi [16].

Turistik makonning "qabul qilish imkoniyati" - muayyan geografik hududda joylashishi mumkin bo'lgan sayyohlar sonining eng yuqori chegaraviy ko'rsatkichidir. Ayrim tadqiqotlarda ushbu konsepsiya mahalliy aholi turizmning salbiy oqibatlarini seza boshlaguniga qadar bo'lgan maksimal sig'im darajasi sifatida talqin etilsa, boshqa ilmiy ishlarda sayyohlarning o'zlar muayyan makonda rekreatsion yuklamaning haddan tashqari ortib ketganini his qiladigan chegara sifatida baholanadi [17]. Ilmiy adabiyotlarda destinatsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, jismoniy va real qabul qilish imkoniyatlari kabi turlari o'zaro farqlanadi [18].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, Barqaror turizm faqatgina iqtisodiy nafni maqsad qilgan ekstensiv modellardan (masalan, "busterizm" yoki Lopez va Mareking dastlabki bosqichlari) farqli o'laroq, ekologik barqarorlik, madaniy o'zlik va ijtimoiy tenglikning sinergetik birligini talab etadi. R. Batler va L. Tyornerning evolyusion modellari nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, Jizzax vohasi qishloqlaridagi tarixiy-etnografik turizm hozirgi kunda asosan "kashf etish" va "ilk shakllanish" bosqichida turibdi. Bu davrda infratuzilmaning kamchiligi va xizmatlar sifatining pastligi sababli, hudud asosan kam xarajat qiluvchi sayyohlarni jalb etmoqda. Vohaning etno-qishloqlari hayot siklining keyingi - faol rivojlanish bosqichiga o'tishi antropogen bosimni oshiradi. Shu sababli, mahalliy aholining an'anaviy turmush tarzi va madaniy-etnografik merosi degradatsiyaga uchramasligi uchun hududning ekologik va

ijtimoiy "qabul qilish imkoniyati" (carrying capacity) chegaralarini oldindan ilmiy asosda belgilash zarur.

"Etno-qishloq" maqomi va konseptual boshqaruv: Jizzax viloyatining Forish (masalan, Sentob, Uxum, Asraf), Zomin yoki Baxmal tumanlaridagi turistik potentsialga ega qishloqlarga rasman "Turizm qishlog'i" maqomini berish va ularni rivojlantirishni "Etno-qishloq" konsepsiyasi asosida tashkil etish lozim. Bunda mahalliy me'morchilik usullari, an'anaviy hunarmandchilik va urf-odatlarini aslicha saqlab qolish majburiy mezon etib belgilanishi shart.

Jamoaga asoslangan turizmni (CBT) rag'batlantirish: Iqtisodiy manfaatlarni mahalliy hamjamiyat o'rtasida teng taqsimlash maqsadida qishloq aholisini oilaviy mehmon uylari (guest houses) va hunarmandchilik markazlari tashkil etishga keng jalb qilish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish va soha bo'yicha bepul treninglar tashkil etish lozim. Bu qishloq

joylarida mavsumiylikka bog'liq bo'lmagan doimiy bandlikni ta'minlaydi.

Raqamlashtirish: Jizzax vohasi qishloqlarining tarixiy-etnografik va tabiiy ob'ektlari haqidagi ma'lumotlarni jamlovchi yagona raqamli platforma (masalan, GIS xaritalari asosidagi mobil ilova) yaratish zarur. Bu platforma nafaqat sayyohlarga navigatsiya va xizmatlarni band qilish imkonini beradi, balki ekotizimga tushayotgan real yuklamani (sayyohlar oqimini) monitoring qilish va nazorat qilish dastagi bo'lib xizmat qiladi.

Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish: Hududga faqatgina yirik va an'anaviy infratuzilma ob'ektlarini (masalan, ko'p qavatli zamonaviy mehmonxonalarni) qurish o'rniga, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan va mahalliy koloritga mos bo'lgan eko-kempinglar, glempinglar va milliy uslubdagi dam olish maskanlarini barpo etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni yo'naltirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Tourism in Mountain Regions, Hopes, Fears and Realities, Sustainable Mountain Development Series; University of Geneva: Geneva, Switzerland; University of Bern: Bern, Switzerland; the United Nations Environment Program: Nairobi, Kenya, 2014; pp. 1–110.
2. Butler, R.W. (2014). Understanding the place of bird watching in the countryside: Lessons from Fair Isle. In *Rural Tourism: An International Perspective*; Dashper, K., Ed.; Cambridge Scholars: Newcastle, UK, 2014; pp. 322–336; Ciolac, R. (2016). Trends regarding tourism in rural area at European level. *Romanian rural areas possible to be capitalized through tourism. Agric. Manag. Lucrari Stiintifice Ser. I Manag. Agric.*, 3, pp.99–106; Page, S.; Getz, D. (1997). *The Business of Rural Tourism International Perspectives*; International Thompson Publishing Company: London, UK; Roberts, L., Hall, D. (2001). *Rural Tourism and Recreation. Principles to Practice*; CABI Publishing Series: Oxford, UK; Okazaki, E. A. (2008). Community-based tourism model: Its conception and use. *J. Sustain. Tour.*, 16, 511–529; Jamal, T.B.; Stronza, A. (2009). Collaboration theory and tourism practice in protected areas: Stakeholders, structuring and sustainability. *J. Sustain. Tour.*, 17, 169–189; Carson, D.A. (2018). Challenges and opportunities for rural tourism geographies: A view from the 'boring' peripheries. *Tour. Geogr.*, 20, 738–742.
3. World Commission on Environment and Development. (1987). *Our Common Future*. Oxford University Press, Oxford, UK.
4. United Nations (1992): *Earth Summit: Agenda 21; Rio Declaration; Statement of Forest Principles: The final text of agreements negotiated by Governments at the United Nations Conference on Environment and Development (UNCED)*, 3–14 June 1992, Rio de Janeiro, Brazil.
5. Pigram, J., J. (1990). Sustainable tourism: Policy considerations. *Journal of tourism studies*, 1 (2), pp. 2–9.
6. UNEP and UNWTO. (2005). *Making Tourism More Sustainable - A Guide for Policy Makers*, pp.11–12.
7. Emmelin, L. (2006). Sustainable tourism development in the Baltic sea region: Overview of existing tools and methods for integrating sustainable tourism development with spatial planning at local and regional level. AGORA. The European Tourism Research Institute (ETOUR) toolbox
8. Bulin, D. & Calaretu, B. (2011). Sustainable development through sustainable tourism – a conceptual note. *Calitatea: acces la success. Vol. 2*.
9. Emmelin, L. (2006). Sustainable tourism development in the Baltic sea region: Overview of existing tools and methods for integrating sustainable tourism development with spatial planning at local and regional level. AGORA. The European Tourism Research Institute (ETOUR) toolbox.
10. Coenen, L., Truffer, B. (2012). Places and Spaces of Sustainability Transitions: Geographical Contributions to an Emerging Research and Policy Field. *European Planning Studies*, Vol. 20, No 3, pp.367–374.
11. Streimikiene, D., Bilan, Y. (2015), „Review of Rural Tourism Development Theories”, *Transformations in Business & Economics*, Vol. 14, No 2 (35), pp.21–34.
12. Butler, R.W. (1980). The Concept of a Tourism Area Cycle of Evolution: Implications for the Management of Resources. *Canadian Geographer*, 24, pp.5–12.
13. Butler, R. & Miossec, J. (1993). *Strategic investment decisions: theory, practice and process*. London, New York.
14. Turner, R., K. (1993). *Sustainable Environmental Economics and Management: Principles and Practice*, London.
15. Lopa, J., M. & Marecki, R., F. (1999). The critical role of quality in the tourism system. *ProQuest Science Journals*, pp.37–42.
16. Wagar, A. (1964). The Carrying Capacity of Wild Lands for Recreation. *Forest Science Monographs* 7, pp. 1–24.
17. O'Reilly, A. (1986). Tourism Carrying Capacity: Concepts and Issues. *Tourism Management*, 7, pp.254–258.
18. Nghi, T., Lan, N., T., Thai, N., D., Mai, D., Thanh, D., X. (2007). Tourism carrying capacity assessment for Phong Nha-Ke Bang and Dong Hoi, Quang Binh province. *VNU Journal of Science, Earth Sciences*, 23, pp. 80–87.